



XITOIY TILIDA 来[LÁI] VA 去[QÙ] HARAKAT YO‘NALISHI FE‘LLARI SEMANTIKASI

*Muxamedjanova Shahbora Kamolovna,
ToshDShU tayanch doktoranti*

Kalit so‘zlar: harakat yo‘nalishi fe‘li, predikat, qo‘shimcha grammatik ma‘no, to‘g‘ri ma‘no, ko‘chma ma‘no, yo‘nalish ma‘nosi, ko‘makchi fe‘l, modifikator.

Harakat yo‘nalishi fe‘llari leksik-semantik guruhi barcha tillarda mavjud. Xitoy tilida fe‘l ma‘no va sintaktik vazifasiga ko‘ra ko‘p qirrali: bir vaqtning o‘zida ham predikativ vazifani bajarishi, ham grammatik ma‘noni ifodalashi mumkin. Ayrim hollarda esa modifikator, ya‘ni ko‘makchi fe‘l bo‘lib kela oladi. Bunda ular yetakchi fe‘lning yo‘nalishiga ishora qiladi. O‘zbek tilida ham ko‘makchi fe‘llar yetakchi fe‘l bilan birga kelganda, unga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi, ya‘ni ma‘no ba‘zan harakat yo‘nalishi, harakatning tezligi, davomiyligi va shu kabilarni ifodalashi mumkin. Maqolada 来 [láI] va 去 [qù] harakat yo‘nalishi fe‘llarining semantik belgilari, ularning qo‘llanilishi hamda xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe‘llari ishtirokidagi vaziyatlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish vositalari tadqiq etildi.

Tadqiqotga manba sifatida Lyuy Shusyangning «现代汉语八百词. 吕叔湘» (Hozirgi xitoy tilining 800 ta so‘zi)²⁴ kitobidagi materiallardan foydalanildi. Ba‘zi o‘rinlarda “Большой китайско-русский словарь”²⁵ lug‘atiga murojaat qilindi.

Xitoy tili tadqiqotchilari 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe‘llarini harakat yo‘nalishi fe‘llari guruhiga kiritadilar. Ularning fikricha, bular asosiy sodda harakat yo‘nalishi fe‘llari, chunki ular ishtirokida harakat yo‘nalishi ma‘nosini anglatadigan qo‘shma fe‘llar hosil qilinadi²⁶.

Aksariyat tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo‘nalishi fe‘llari semantikasining xususiyati shundaki, bu fe‘llar sodir bo‘layotgan harakatga nisbatan so‘zlovchining turgan joyiga ishora qiladi. Agar harakat so‘zlovchi (yoki obyekt)ga yo‘nalgan bo‘lsa, 来 (*kelmoq*), aksincha, so‘zlovchi (yoki obyekt)dan “uzoqlashish” ma‘nosi ifodalansa, 去 (*ketmoq*) fe‘li qo‘llaniladi; masalan:

他来了。[Tā lái]U *keldi* (harakat so‘zlovchiga yo‘nalgan – bu yoqqa).

他去了。[Tā qù]U *ketdi* (harakat so‘zlovchining turgan joyidan boshqa joyga qaratilgan – u yoqqa).

Demak, harakat oriyentiri obyekt sifatida so‘zlovchining turgan joyi olinadi. Biroq materiallar tahlili ko‘rsatishicha, harakat bayoni so‘zlovchi tomonidan bo‘lishi yoki so‘zlovchiga yo‘naltirilgan bo‘lishi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yo‘nalishi fe‘llarining barcha semantik xususiyatlarini qamrab olmaydi. Zero, harakatning sodir bo‘lishi so‘zlovchiga aloqador bo‘lmagan juda ko‘p vaziyatlar mavjud. Shuning uchun so‘zlovchi turgan joy doim ham harakat oriyentiri bo‘la olmaydi.

Djan Faming “趋向动词“来”“去”新义” (“来”va “去” harakat yo‘nalishi fe‘llari haqida yangi tushunchalar”) maqolasida 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe‘llari orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan harakatning ikki xil oriyentirini ajratadi:

1. *Harakat oriyentirining subyektiv aniqlanishi.* Bunda sodir etilayotgan harakat oriyentiri so‘zlovchi tomonidan aniqlanadi. “Agar gapda harakat yo‘naltirilgan oriyentir aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa, harakat oriyentiri

²⁴现代汉语八百词. 吕叔湘, 主编. -北京, 1997.

²⁵Большой китайско-русский словарь: в 4 т. / под ред. И.М. Ошанина. – М.: Наука, 1984.

²⁶Bu haqda qarang. 幸承姬 Sin Sing Xi. 汉语趋向动词系统. Xitoy tili harakat yo‘nalishi fe‘llari tizimi // Вестник китайского языка. – 2000. – № 1. – Б. 97-105.



sifatida soʻzlovchining turgan joyi yoki biror boshqa joy olinadi”²⁷.

2. *Harakat oriyentirining obyektiv aniqlanishi.* Bunda gapda harakat oriyentiri boʻlgan joy mavjud. “Agar gapda joy aniq koʻrsatilgan boʻlsa, bu joy sodir etilayotgan harakat oriyentiri boʻlib xizmat qiladi”²⁸.

Koʻrinadiki, soʻzlovchi turgan joy doim ham sodir etilayotgan harakat oriyentiri boʻla olmaydi. Shunday holatlar borki, soʻzlovchiga bogʻliq yoki aloqasi boʻlmagan biror joy oriyentir boʻlib keladi. Masalan, agar oʻqituvchi koʻchada talabani uchratib, “你下午来吧(*Tushdan soʻng kelgin*)”, deb aytsa, soʻzlovchining turgan joyi (bu oʻrinda oʻqituvchi koʻchada) sodir boʻladigan harakat oriyentiri emas, albatta. Bunday holatda harakat oriyentiri – auditoriya, yaʼni bevosita soʻzlovchiga aloqador joy nazarda tutilmoqda. “初班来了五个学生” (*Boshlangʻich guruhga beshta talaba keldi*) va “他星期五去北京” (*U juma kuni Pekinga ketadi*) gaplarida soʻzlovchining turgan joyi muhim emas. Bu gaplarda 初班 (*boshlangʻich guruh*) va 北京 (*Pekin*) – harakat oriyentiri obyektiv aniq.

来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) feʼllari harakat yoʻnalishini ifodalaydi, biroq bu harakat yoʻnalishi sodir etilayotgan harakat oriyentiriga nisbatan turlicha.


来 (*kelmoq*) feʼli doimo sodir etiladigan harakat oriyentiriga yoʻnalgan harakatni ifodalaydi. 去 (*ketmoq*) feʼli quyidagi ikki xil vaziyatda qoʻllanilishi mumkin:

1- vaziyat (bu vaziyatda qoʻllaniladigan 去 (*ketmoq*) feʼlini biz 去₁ deb belgilaymiz): harakat oriyentiriga yoʻnalgan harakat; bunda soʻzlovchi vaziyatni chetdan kuzatuvchi sifatida yuzaga chiqadi, masalan:

女孩向妈妈跑去。 (*Qizaloq onasi tomon yugurib ketdi*).

Keltirilgan gapda soʻzlovchi sodir boʻlgan harakatni fakt sifatida qayd qiladi. Soʻzlovchi subyekt tomonidan sodir etilgan harakat kuzatuvchi haqida xabar bermoqda. 1-

vaziyatni sxemada quyidagicha berish mumkin:




sodir etiladigan harakat oriyentiri; S – soʻzlovchi; ← – sodir etiladigan harakat yoʻnalishi.

2- vaziyat (bu vaziyatda qoʻllaniladigan 去 (*ketmoq*) feʼlini biz 去₂ deb belgilaymiz): harakat oriyentirdan yoʻnalgan boʻlib, bunda soʻzlovchi bevosita vaziyat ishtirokchisi boʻladi.

他去三天了。 (*U [mening oldimdan] ketganiga uch kun boʻldi*).

Mazkur gapda sodir etilgan harakat oriyentiri subyektiv aniq boʻlib, bu – soʻzlovchi [men]. 2-holatni sxema koʻrinishida quyidagicha berish mumkin:



Yuqorida keltirilgan ikki vaziyatning oʻzaro farqi shundaki, birinchi vaziyatda 去₁ feʼli qoʻllanilganda, harakat yoʻnalgan oriyentir obyektiv, yaʼni aniq ifodalangan (*ona tomonga yoʻnalgan*). Mazkur holatda soʻzlovchi chetdan kuzatuvchi boʻlib, uning turgan joyi oriyentir bilan mos kelmaydi. Ikkinchi vaziyatda 去₂ feʼli qoʻllanilganda, sodir etilayotgan harakat oriyentiri subyektiv, yaʼni soʻzlovchi shaxs (harakat soʻzlovchi tomondan boshqa tomonga yoʻnalgan). Soʻzlovchi vaziyat ichida va uning bevosita ishtirokchisidir.

Demak, 去 (*ketmoq*) asosiy harakat yoʻnalishi feʼli semantikasida muhim ikki vaziyatni farqlash lozim; bu tafovut harakat subyektiga nisbatan soʻzlovchining oʻrnini ifodalashda koʻrinadi: a) soʻzlovchi chetdan kuzatuvchi sifatida keladi; b) soʻzlovchi vaziyat ishtirokchisi (vaziyatning ichida) boʻlib keladi.

Xitoy tilidagi asosiy harakat yoʻnalishini ifodalovchi 来 (*kelmoq*) va 去₁ (*ketmoq*) feʼllarining semantikasidagi farq harakat oriyentiri yoki harakat yoʻnalishi semantikasida emas, balki xabar

²⁷张发明Djan Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yoʻnalishi feʼllari haqida yangi tushunchalar)// 1983. –№ 1. –Б. 95.

²⁸Кўрсатилган мақола. – Б. 95.



(ma'lumot)ning bayon qilinishida, aniqrog'i, vaziyat nima (kim) nuqtayi nazaridan tavsiflanmoqda. Masalan:

学生朝教室走来。(Talaba auditoriya tomon **yurib kelyapti**) .

学生朝教室走去。(Talaba auditoriya tomon **yurib ketyapti**) .

Keltirilgan misollarda sodir etilayotgan harakat yo'nalishi bir xil, harakat oriyentir tomon yo'nalgan, gaplardagi harakat oriyentiri o'zaro mos – 教室(auditoriya). Semantik nuqtayi nazardan bu misollarni ikki jihatdan ko'rib chiqish mumkin:

1. So'zlovchi harakat oriyentiri bilan bevosita bog'liq.

So'zlovchi auditoriyada bo'lib, subyektning u tomon yo'nalgan harakati haqida xabar bersa, 来 (*kelmoq*) fe'li ishlatiladi. Vaziyat so'zlovchi tomonidan tavsiflanadi va uning o'zi harakat oriyentiri vazifasini bajaradi. So'zlovchi bunday holatda vaziyat ishtirokchisi sifatida auditoriyada yoki harakat sodir etilayotgan joyda bo'ladi. So'zlovchi auditoriyadan tashqarida bo'lsa va subyekt harakatining muayyan joyga (auditoriyaga) yo'nalganligi haqida xabar bersa, 去 (*ketmoq*) fe'li ishlatiladi. So'zlovchi vaziyat ishtirokchisi, biroq u auditoriyadan tashqaridadir.

2. So'zlovchi harakat oriyentiriga bog'liq emas, u vaziyatni chetdan kuzatuvchi.

来 (*kelmoq*) fe'li qo'llanilganda xabar markazi – 教室 (auditoriya), ya'ni harakat yo'nalgan joy 教室 (auditoriya) ekanligi ta'kidlanmoqda. 去 (*ketmoq*) fe'li qo'llanilganda esa, e'tibor subyekt harakatiga qaratilmoqda, xabar markazi, tabiiyki, 学生 (talaba)dir.

来 (*kelmoq*) va 去₂ (*ketmoq*) harakat yo'nalishi fe'llarining semantikasidagi farq sodir etilayotgan harakat yo'nalishining ifodalanishiga bog'liq. Yuqorida ta'kidlanganidek, 去₂ harakat oriyentir tomondan boshqa tomonga yo'naltirilgan vaziyatda qo'llaniladi, 来 (*kelmoq*) esa oriyentir tomon yo'nalgan harakatni ifodalaydi. Shunday qilib, harakat oriyentiri o'zaro mos, tafovut esa sodir etilayotgan harakat yo'nalishi bilan bog'liq. Masalan:

下午他来了。(U *kunning ikkinchi yarmida keldi* [bu yerga/ biznikiga]).

下午他去了。(U *kunning ikkinchi yarmida ketdi* [bu yerdan/ biznikidan]).

Keltirilgan misollarda sodir etilayotgan harakat oriyentiri subyektiv anglashilgan – bu so'zlovchi turgan joy [bu yer]. Birinchi gapda harakat oriyentir tomon yo'nalgan, ikkinchi gapda esa harakat oriyentirdan yo'nalgan. Demak, 来 (*kelmoq*) va 去₂ (*ketmoq*) harakat fe'llari qo'llanilganda, harakat oriyentiri bir xil (so'zlovchi), tafovut sodir etilayotgan harakatning yo'nalishidadir (harakat oriyentiri tomon va harakat oriyentiridan).

Demak, xitoy tilidagi asosiy harakat yo'nalishi fe'llari semantikasi so'zlovchi turgan joyga yoki so'zlovchi turgan joydan yo'nalgan harakatni ko'rsatish bilan cheklanmaydi. Bu fe'llarning ma'nosini tavsiflashda ular qo'llanilayotgan til vaziyatini inobatga olish kerak. Til vaziyati harakat oriyentiriga nisbatan so'zlovchining o'rni, so'zlovchining turgan joyi (ichida yoki tashqarida), so'zlovchining ish-harakat jarayonida ishtirok etishi yoki etmasligiga ko'ra farqlanadi.

O'zbek tilida *kelmoq* va *ketmoq* harakat yo'nalishi fe'llarining leksik ma'nolariga e'tibor qaratamiz.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da (O'TIL) *kelmoq* fe'lining yurish-harakat bilan bog'liq quyidagi ma'nolari keltiriladi:

a) yurish, uchish harakati yoki transport vositalari bilan so'zlovchiga qarama-qarshi tomondan so'zlovchi turgan tomonga, joyga yo'l olmoq, yo'nalmoq: *Poyezd kelayapti* (*poyezd keldi*);

b) so'zlovchi turgan joyga yoki so'zlovchi tomondagi joyga yetmoq: *Nimaga kelipti?* (O'TIL, 2008: 2- j. 347-349). Ushbu fe'lning ikkala ma'nosida ham yakuniy chegaraga intilganlik ma'nosi mavjud.

Tilda ko'p qo'llaniladigan yurish-harakat fe'llaridan yana biri *ketmoq* hisoblanadi:

a) o'z turgan joyini tark etmoq, o'z turgan joyidan boshqa tomonga yo'l olmoq: *Mehmonlar uch kun turib ketishdi* (O'TIL, 2008: 2- j. 359-360).

O'zbek tilida *kelmoq* va *ketmoq* harakat yo'nalishi fe'llari gorizontaal yo'nalish,



vertikal yoʻnalish, makonni tark etish, makonga yetganlik maʼnolariga ega boʻlishiga qaramasdan, ularning barchasida chegaraga intilganlik, yoʻnalganlik semantikasi mavjud.

来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yoʻnalishi feʼllari tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Soʻzlovchi subyekt harakatida vaziyat ishtirokchisi boʻlishi mumkin. U sodir boʻlayotgan harakatni tavsiflaydi, u turgan joy harakat oriyentiri bilan mos keladi. Bunday holatda 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) feʼllari qoʻllanilganda, harakat yoʻnalishi oʻzaro mos boʻlmaydi.

2. Soʻzlovchi subyekt harakatida vaziyat ishtirokchisi boʻlishi mumkin. U sodir boʻlayotgan harakatni tavsiflaydi, u turgan joy harakat oriyentiri bilan mos kelmaydi: soʻzlovchi yoki harakat oriyentiri yonida, yoki harakat subyektini yonida boʻladi. Bunday holatda 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) feʼllari qoʻllanilganda, harakat yoʻnalishi bir xil boʻlishi mumkin, tafovut – xabar markazida,

soʻzlovchining nimaga urgʻu bermoqchi boʻlganidadir.

3. Soʻzlovchi subyekt harakati bilan bogʻliq vaziyatda ishtirok etmaydi. U vaziyatni chetdan kuzatuvchi sifatida tasvirlaydi. Bunday holatda 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) feʼllarining qoʻllanilishida harakat yoʻnalishi oʻzaro mos boʻlmaydi.

Shunday qilib, xitoy tilidagi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yoʻnalishi feʼllari maʼnolarini ochib berishdagi asosiy jihat bu sodir etilayotgan harakat oriyentiri hamda sodir etilayotgan harakat yoʻnalishidir. Oriyentir subyektiv (soʻzlovchi) yoki obyektiv (gapda koʻrsatilgan boʻladi) aniqlanishi mumkin va har doim ham soʻzlovchining turgan joyi bilan mos kelmaydi. Harakat oriyentirini koʻrsatish bilan bir qatorda, xabar markazi va soʻzlovchining harakat vaziyatiga munosabati ham juda muhim. Xitoy tilidagi 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) harakat yoʻnalishi feʼllari semantikasi oʻta murakkab boʻlib, ularning qoʻllanilishi juda koʻp omillarga bogʻliq.

Adabiyotlar

1. Хожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966.
2. Хожиев А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.
3. Большой китайско-русский словарь: в 4 т. / под ред. И.М. Ошанина. – М.: Наука, 1984.Т.4.
4. Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. – Москва: 1952.
5. Задоев Т.П., Хуан Шуин. Основы китайского языка. – Москва: Наука, 1986.
6. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – 709 с.
7. Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. – Ленинград, 1957.
8. Li Dejin, Cheng Meizhen. A Practical Chinese Grammar. – Beijing: Sinolinghua, 2003.
9. 吕叔湘 Lu Shuxian. 现代汉语八百词(Hozirgi xitoy tilining 800 ta soʻzi). -北京: 商务印书馆, 1997.
10. 刘月华, 潘文娱, 故桦 Liu Yuehua, Pan Wenyu, Gu Hua. 《实用现代汉语语法(Amaliy zamonaviy xitoy tili grammatikasi)》. 北京: 商务印书馆, 2013.
11. 张发明 Zhang Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yoʻnalishi feʼllari haqida yangi tushunchalar)// 1983.
12. 散文佳作108篇108 шедевральных саньвэней /乔萍等编著 под редакцией Цзяо Пин. –南京:译林出版社, Нанкин: Илин, 2009.
13. 马烧莹 Ma Shaoyin. 现代汉语趋向动词语义研究. Hozirgi xitoy tilida harakat yoʻnalishi feʼllari semantikasi tadqiqi. Magistrlik ishi. – Fudan universiteti, 2004.



Мухамеджанова Ш. Семантика глаголов движения 来 [lái] and 去 [qù] в китайском языке. Исследователями китайского языка в группе глаголов движения выделяется особая группа глаголов, выражающая направление совершаемого движения – глаголы направления движения. В предложении данные глаголы могут выступать как в функции самостоятельного глагольного предиката, так и в функции дополнительного члена, именуемого направительным дополнительным членом, ориентационным модификатором или направительной морфемой. Глаголы 来 [lái] (приходить) и 去 [qù] (уходить) в китайском языке входят в группу основных простых глаголов направления движения и они могут участвовать в образовании сложного глагола направления движения. В данной статье рассматриваются семантические особенности глаголов 来 [lái] и 去 [qù], их использования, а также способы выражения ситуаций с глаголами направления движения в китайском языке при переводе их на узбекский язык.

Muhamedjanova Sh. Semantics of the verbs of action 来 [lái] and 去 [qù] in the Chinese language. Researchers of the Chinese language in the group of verbs of motion distinguishes a special group of verbs that expresses the direction of the movement — and the verbs of the direction of movement. In a sentence, these verbs can act both as a function of an independent verb predicate and as a function of an additional term, called a directive additional term, an orientational modifier, or a directive morpheme. The verbs 来 [lái] (come) and 去 [qù] (go) in the Chinese language are included in the group of basic simple verbs of the direction of movement and they can participate in the formation of a complex verb of the direction of movement. This article discusses the semantic features of the verbs 来 [lái] and 去 [qù], their use, as well as ways of expressing situations with verbs of the direction of movement in Chinese when translating them into Uzbek.